



**Yaponiyada  
“o‘qituvchilar kuni”  
yo‘q...**

5-betda o‘qing



**Muruvvat**

Qaysi qilgan aybi uchun osishlari kerak?..  
Patyalga endi buning qizig‘i yo‘q edi. Qatl oldi-  
dagi oqshomda...

8-betda o‘qing

2023-YIL  
30-SENTABR  
SHANBA

№ 39 (1399)

www.hudud24.uz

# INSON va qonun

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz)

[telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/)



## ADLIYA VAZIRLIGI

jamoasi ustoz va murabbiylarni,  
shu jumladan faxriy ustozlarni,  
ziyolilarni

**1-OKTABR – O‘QITUVCHI VA  
MURABBIYLAR KUNI BILAN  
SAMIMIY MUBORAKBOD ETADI!**

Hamisha elimiz va shogirdlar  
ardog‘ida umrguzaronlik qilish  
baxti sizlarni aslo tark etmasin!



## Muallimlarga



Nechog‘ baxtiyorman, ta‘zimda shu tob,  
Sizning sha‘ningizga bitmoqdaman bayt.  
Ne odam bo‘lardim, qo‘limda kitob  
Biron harf tanimay tursaydim loqayd.

Siz-ku “Alifbo”dan “Qomus”gacha to  
Bari-barisini tanitgan ustoz.  
Ilk bor Siz ko‘rsatgan duraxshon Zuhro,  
Bu kun she‘rim ichra tashbihdir mumtoz.

Siz mo‘jaz yurakda yoqolgan yog‘du,  
Oqibat quyoshdek socha olur nur.  
Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:  
Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.

Olamda ko‘p erur muborak onlar,  
Tabarruk zotlar ham garchand ko‘p erur.  
Sizgadir ilk rahmiat aziz insonlar,  
Munis muallimlar sizga tashakkur!


**Abdulla ORIPOV,  
O‘zbekiston xalq shoiri**

## 2 JARAYON

## MEHNAT HUQUQLARINI O'RGANAMIZ

Mamlakatimizda so'nggi yillarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning kasb tanlash va o'z sevgan sohasida mehnat qilishlari uchun adolatli va xavfsiz sharoitlarni ta'minlash bo'yicha huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Biz buni amaldagi Mehnat kodeksida ham ko'rishimiz mumkin.

## Dam olish kuni bayramga to'g'ri kelsa, qo'shimcha dam olish kuni beriladi



Kodeksning yangi tahririda ish beruvchi hamda ishchi-xodimning mehnatga oid huquqlari yanada mustahkamlandi. Ushbu kodeksni ishlab chiqish haqidagi ustuvor vazifalar bundan olti yil avval, aniqrog'i, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilangan edi. Albatta, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar zamiridagi "Inson qadri" g'oyasi har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi uchun uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutadi.

Quyida mehnat ta'tili va bayram munosabati bilan dam olish kunlari bo'yicha Mehnat kodeksiga kiritilgan yangi normalar haqida to'xtalib o'tamiz. Yangi Mehnat kodeksida yillik asosiy mehnat ta'tili davomiyligining eng kam muddati yigirma bir kalendar kun etib belgilandi va xalqaro standartga muvofiqlashtirildi. Ya'ni, ushbu kodeksning 220-moddasiga ko'ra, endilikda xodimning bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish staji uchun har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili berilishi ko'zda tutilgan. Ya'ni, xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili berilishi nazarda tutilgan. Shuni alohida nazarda tutish joizki, xodim biron-bir tashkilotda yigirma yildan ortiq ishlagan bo'lsa ham sakkiz kundan ortiq qo'shimcha ta'til ololmaydi.

Yurtimizda muhim voqealarga bag'ishlangan, an'ana sifatida nishonlanadigan, ish kuni hisoblanmaydigan, ya'ni ishlamaydigan bayram kunlari mavjud. Yangi Mehnat kodeksiga, asosan, agarda dam olish kuni bayram kuniga to'g'ri kelib qolsa, xodimlar bayram munosabati bilan beriladigan qo'shimcha dam olish kunlari evaziga oila davrasida, yaqinlari bilan hordiq chiqarish, bayramni ko'ngildagidek nishonlash imkoniga ega bo'lishlari uchun u keyingi ish kuniga ko'chiriladigan bo'ldi.

Masalan, besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodim shanba kuni dam oladi, 8 dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni dam olish kuni shanba kuniga to'g'ri kelib qoldi, deylik. Bunda qoldaga asosan shanba kunida nazarda tutilgan dam olish kuni 10-dekabr sanasiga ko'chiriladi. Ilgari bunday tartib mavjud emas edi.

Bir so'z bilan aytganda, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

**Doston XOLMATOV,**

Guliston shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

## "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI – INSON MANFAATLARI UCHUN

### TARAQQIYOT SARI DADIL QADAM

2023-yil 11-sentabrdagi Prezident farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi hamda uni 2023-yilda o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Farmonga ko'ra, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalish hamda 100 ta maqsaddan iborat:

- ✓ har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;
- ✓ barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
- ✓ suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ✓ qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- ✓ "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi doirasida:

2024-yil 1-yanvardan aholiga yo'l harakati xavfsizligi sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishda, shu jumladan avtomototransportlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda ularning oldi-sotdi shartnomalari va boshqa notarial tasdiqlangan bitimlarni "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan olish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.



Bunda ariza beruvchilardan mazkur hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

2024-yil 1-martdan notarial idoraga kelmasdan, shu jumladan chet eldan turib, mulkdan foydalanish bilan bog'liq bitimlarni (mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazishdan tashqari) elektron raqamli imzodan foydalanib, videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirish tartibi yo'lga qo'yiladi.

Strategiyada, shuningdek, boshqa bir qator ustuvor vazifalar ham belgilandi. Jumladan, 2024-yil yakunigacha qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalari tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi joriy etiladi.

#### 2024-yil 1-yanvardan quyidagi tartiblar joriy etiladi:

birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsni, agar u sud maslahatxonaga kirguniga qadar soliqlar va yig'imglar, shu jumladan penyalar va boshqa

moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilish;

tadbirkorlarga nisbatan qo'zg'atilgan har bir jinoyat ishi bo'yicha tergov hamda sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs jinoyat ishi materiallarini ish yurituviga qabul qilgan vaqtdan tadbirkorni himoya qilishga Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, shuningdek, tadbirkorlik subyekti o'zo hisoblangan boshqa tashkilotni jamoat himoyachisi sifatida jalb etish (xabar qilish).

Strategiyada belgilangan ustuvor yo'nalishlar inson manfaatlarini uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Eng muhimi, bu tadbirlar bosqichma-bosqich, yildan-yilga ijobiy natijalarga erishish orqali amalga oshiriladi. Bu esa taraqqiyot sari dadil qadamdir.

**Muhabbat KAMILOVA,**

Yangiyo'l tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius

## BIR OILADA BESH NAFAR FARZANDNING TUG'ILGANLIK FAKTI BELGILANDI

Bag'dod tuman adliya bo'limi tomonidan bir onaning farzandlari bilan bog'liq muammoga ijobiy yechim topib berildi.

Bag'dod tumani, "Do'rmoncha" mahallasida istiqomat qiluvchi Mastona Yul'gunova voyaga yetmagan besh nafar farzandiga muddati o'tib ketgani bois, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarini ololmayotgani yuzasidan tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan edi.

Gap shundaki, bolalarning ota-onalari farzandlari tug'ilgan paytda bee'tiborligi sababli, qolgan ishga qor yog'di. Vaqtlar o'tib maktab va maktabgacha ta'lim muassasalariga joylash va shu kabi ishlarda hujjatlar zarurati tug'ildi.

– Biz beparvo yuraveripmiz, – deydi Mastura Yul'gunova. Bolalar katta bo'lganidan keyin hujjatlari "gapirish"ni boshlar ekan. Tug'ilganlik

faktini belgilashda birmuncha muammolarga duch keldik. Do'stlarimizning maslahati bilan tuman adliya bo'limiga murojaat qildik.

Ushbu oilaning to'ng'ich farzandi 13 yoshda, eng kenjasi esa 3 yoshda. Mastona Yul'gunovaning tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlarini tiklash yuzasidan adliya bo'limiga yo'llagan murojaati ijobiy yechim topdi. Murojaat sud tartibida hal etilib, bolalarning tug'ilganlik fakti belgilandi.

"Do'rmoncha" MFY raisi A. Umrzoqovning aytishicha, oilaning barcha farzandlari uy sharoitida tug'ilgan.

Tahillilar shuni ko'rsatmoqdaki, yil boshidan buyon Farg'onada adliya bo'limlariga 2 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan bo'lib, ularning aksariyati ijobiy hal etilgan.

**Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi**



Qibray tuman adliya bo'limiga shu yil 17-avgust kuni "A.O." MChJ rahbari U.X. murojaat qilib, Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan kreditor qarzdorligi to'lanmayotganidan noroziligini bildirgan.



## MASALA MCHJ FOYDASIGA HAL BO'LDI

Aniqlanishicha, "A.O." MChJ (Autorsor) nizom asosida faoliyat yurituvchi U.X. va Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Buyurtmachi) o'rtasida 2023-yil 27-yanvar kuni 2-sonli shartnoma tuzilgan. Biroq, Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 2023-yil 7-avgust holatiga ko'ra, "A.O." MChJga nisbatan 1 milliard 902 million 308 ming 471 so'mlik kreditor qarzdorlik vujudga kelgan. Hozirgi kunga qadar uni to'lab berish choralari ko'rilgan.

Vaholanki, Fuqarolik kodeksining 324-moddasida qarzdor majburiyatni bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shartligi belgilangan. Mazkur kodeksning 703-moddasida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini olishi belgilangan. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga muvofiq, taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'lashi

va Fuqarolik kodeksida, ushbu qonunda, o'zga qonunchilik hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'lishi belgilangan.

Mazkur murojaat mas'ul xodimlar tomonidan o'rganildi. "A.O." MChJ manfaatida javobgar Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga nisbatan kreditor qarzdorlikni undirish to'g'risida Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining hal qiluv qaroriga asosan Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 1 milliard 902 million 308 ming 471 so'mlik kreditor qarzdorligi to'lab berildi.

Yana bir tadbirkorlik subyekti – "M.S.S." MChJ rahbari M.A. ham tuman adliya bo'limiga Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi kreditor qarzdorligi bo'yicha to'lovni amalga oshirmayotganidan norozi bo'lib murojat qildi. Aniqlanishicha, Autorsor va Buyurtmachi o'rtasida 2023-yil 27-yanvar kuni 3-sonli shartnoma tuzilgan. Biroq, Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tadbirkordan 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 1 milliard 308 million 497 ming 693 so'm miqdorida qarzdor bo'lib qolgan. Lekin qarzdorlik hozirgi kunga qadar to'lab berilmagan.

Adliya aralashuvi bilan bu holatda ham masala MChJning foydasiga hal bo'ldi. Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga Qibray tuman adliya bo'limi tomonidan kiritilgan da'vo arizasi ko'rib chiqilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 1 milliard 308 million 497 ming 693 so'mlik kreditor qarzdorlik to'lab berildi.

**Jahongir ABDUSATTOROV,**  
Qibray tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



Davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunlar, Prezident farmonlari, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy qilingan.

## Ijro intizomi – samarali faoliyatning muhim omili



Unga muvofiq, 2021-yil 1-maydan e'tiboran barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijroni nazorat qilish, nazorat kartotekalarini yuritish va hisobotlarni shakllantirish faqat "Ijro.gov.uz" tizimida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Shu jumladan, davlat organlari va tashkilotlarida hujjatlari aylanmasini yaxshilash, ijro intizomini mustahkamlash hamda uning ustidan elektron nazorat olib borish maqsadida "av.ijro.uz" elektron platformasi ishga tushirilgan.

Hujjat aylanmasi bu – biron bir tashkilotda hujjatlarni tuzish yoki olish paytidan boshlab to ijro etish yoki jo'natishgacha bo'lgan jarayondir. "Av.ijro.uz" platformasi poytaxtdan – davlat organi yoki tashkilotning respublika boshqaruvidan chekka bir tumanidagi quyi tuzilmasiga yuboriladigan xat-hujjatlar tezkor va ishonchli yetib borishiga xizmat qiladi. Davlat organi yoki tashkilotning ichki hujjatlar aylanmasida esa ijro intizomining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsataadi. Unda kelib tushgan xat-hujjatning sanasi, yuborgan tashkilot, xat-hujjatning chiqish raqami, hujjatning qisqacha mazmuni



va eng asosiysi xat-hujjat kelib tushgan tashkilot rahbarining ushbu xatga qo'yadigan rezolyutsiyasi hamda bajarish muddati aniq ko'rsatib qo'yiladi. Muddati o'tgan xat-hujjatlar bo'yicha qizil tugmacha yonib, ularning ijrochisi xususida ogohlantirib turadi. Eng muhimi, mazkur tizim orqali barcha hujjatlarning ijro etilishi nazorat qilinadi. Ya'ni, hujjatni nazorat qilishni yo'lga qo'yish, ijrochiga o'z vaqtida yetib borishni tekshirish, ijroni amalga oshirish jarayonini tekshirish va boshqarib turish, hujjatlar ijrosini nazorat qilish natijalarini hisobga olish, umumlashtirish va bu haqda rahbarni xabardor qilish orqali amalga oshiriladi.

Ijro etilish muddatlari hujjat imzolangan sanadan boshlab taqvim kunlarda, yangi kelgan hujjatlarni kelgan kundan boshlab hisobga olinadi. Ijro muddatini o'zgartirish to'g'risidagi qaror rahbar rezolyutsiyasida ko'rsatiladi. Vazifa bajarilgandan keyin natijalar to'g'risida tegishli topshiriqlarga va shaxslarga xabar berilgach yoki ijroning boshqa hujjat bilan tasdiqlangani ma'lum bo'lgach, hujjat bajarilgan hisoblanadi hamda nazoratdan olinadi. Ijrochilarning ish natijalari va nazorat qilinuvchi hujjatlar Tashkiliy nazorat va tahlil bo'limi tomonidan vaqti-vaqti bilan umumlashtiriladi, tahlil qilib boriladi. Ijro intizomining samaradorligini mustahkamlash maqsadida tashkilot rahbariga axborot berib boriladi.

Nazorat qilinayotgan hujjatlar ijrosining muddati, ijrochilar, shuningdek, hujjatlar guruhlari bo'yicha alohida-alohida tartibga solinadi.

Hujjatlar ijrosi nazorat qilinayotganida uning varaqchasi ijrochi bo'linmaga yuboriladi, tarkibiy bo'linmadagi ijrochining ismi, familiyasi va otasining ismi hamda telefon raqami kiritiladi. Nazoratdagi hujjat varaqchasi-ga ijroning borishi va natijalari yozib qo'yiladi. Ijroning holati va natijalari to'g'risida rahbarlarga muntazam axborot berib turiladi. Hujjatlar ijrosining borishi va natijalari to'g'risida esa haftalik yig'ilishlarda axborot berib turiladi;

Bundan tashqari, rahbar ko'rsatmasiga binoan hujjatlar nazoratdan chiqariladi. Ijro etilgan hujjatlar varaqchalari yig'majildi tuziladi.

Bir so'z bilan aytganda, ijro intizomi faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

**Sanjar PARDAYEV,**  
Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertizasi markazi katta mutaxassisi

## 4 "MADAD" JAVOB BERADI

**QO'SHIMCHA YORDAM OLIISHGA HAQLIMANMI?**

– Turmush o'rtog'im bilan ajrashganman. U bolamga sud qarori bilan aliment to'laydi. O'rtamizda bitta voyaga yetmagan 5 yoshli farzandimiz bor.

Bolamga nogironlik belgilangan. Uni har 6 oyda davolataman. O'zim ishlayman, lekin oylik maoshim ko'p emas. Hozirgi kunda bolam shoshilinch operatsiya qilinishi uchun pul zarur bo'lyapti. Bolaga berilgan aliment davolatishga, uning operatsiyasiga yetmayapti. Davolatishda otasi ishtirok etmaydi. Qonun bo'yicha undan qo'shimcha yordam so'rashga haqlimanmi?

– Alimentdan tashqari bolangizning ta'minoti uchun qo'shimcha xarajatlarda ham turmush o'rtog'ingiz otasi sifatida ishtirok etishi shart.

Buning uchun bolangizning kasalligi va davolanish xarajatlari bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar asosida qo'shimcha xarajatlarni undirish yuzasidan Fuqarolik sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilish huquqiga egasiz.

Oila kodeksining 103-moddasiga ko'ra, ota-ona favqulodda holatlarda, kasal bo'lishi va boshqalar tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishi shart.

Qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan otadan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

**SOLIQ TO'LAYMANMI?**

– Men talabalarga uyimni ijara beryapman. Ijara shartnomasini soliqdan ro'yxatdan o'tkazsam, uyimni ijara berib olgan daromadimdan soliq to'laymanmi?

– Soliq kodeksining 378-moddasiga muvofiq, 2022-yil 1-yanvardan boshlab soliq to'lovchining uy-joylarni talabalarga ijara berishdan olingan daromadlariga soliq solinmasligi belgilangan.

Shunga ko'ra, siz uyingizni talabalarga ijara berishdan olingan daromadlaringizga soliq to'lamaymiz.

**DA'VO QILISHGA HAQLIMANMI?**

– Turmush o'rtog'im 2019-yil dekabr oyida vafot etdi. O'rtamizda 3 nafar voyaga yetmagan farzandim bor. Men turmush o'rtog'im bilan rasmiy nikohdan o'tib, qaynotamning otasining uyida birga yashaganmiz. Hozir shu uyda qaynona-qaynotam, qaynotamning aka-ukalari ham birga yashaydi. Turmush o'rtog'im bilan nikoh davrida uy-joy olmaganmiz. Qaynotamning otasi ham vafot etdi. Bolalarim bilan shu uy-joyda doimiy ro'yxatda turamiz. Mening yashash uchun boshqa uy-joyim yo'q. Qaynotam uydin joy berishni xohlamagach, 2 oydirki, otanamning uyida, aka-ukalarim bilan, uy-joyga muhtoj bo'lib yashab kelayapmiz. Ular ham oilali, hatto farzandlarim bilan yashashim uchun alohida xona ham yo'q. Men kelin bo'lib tushgan, yashagan uyimdan bolalarim uchun ulush talab qilishim mumkinmi?



– Yo'q, ulush talab qilish huquqiga ega emasmiz. Ushbu uy-joy qaynotangizning otasiga tegishli bo'lganligi uchun bu uydin ulush olishga haqli emassiz. Lekin qonuniy tartibda bu uyda yashashingiz mumkin. Agar qaynotangizning otasi vafot etgan bo'lsa, uy-joyning boshqa shaxsiga berilishi bo'yicha vasiyatnoma va boshqa hujjatlar qoldirilmagan bo'lsa, qonuniy vorislik asosida birinchi darajali vorislar – qaynotangiz va uning aka-ukalari, qaynotangizning onasi Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan teng ulushda haqдор merosxo'r hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga asosan qaynotangiz ushbu uy-joydagi o'z merosdagi ulushini boshqa shaxsiga berish yoki bermasligi o'zining huquqi hisoblanadi.

Uy-joy kodeksining 32-moddasiga asosan uy mulkdorining oila a'zolari, shuningdek u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar, agar ularni ko'chirib kelgan paytda yozma ravishda boshqa hol qayd etilgan bo'lmasa, uydagi, kvartiradagi xonalardan mulkdor bilan teng foydalanishga haqli. Ular mulkdor bergan turar joyga o'zlarining voyaga yetmagan farzandlarini ko'chirib kiritishga haqli. Oilaning boshqa a'zolarini esa, uy, kvartira mulkdorining roziligi bilangina ko'chirib kiritishlari mumkin. Bu shaxslar uy, kvartiraning mulkdori bilan oilaviy munosabatlarni tugatgan taqdirda ham ularda turar joydan foydalanish huquqi saqlanib qoladi.

Bunga ko'ra, ushbu uy-joyda doimiy ro'yxatda turgan holda yashab kelgan bo'lsangiz, mazkur uy-joyda yashash huquqiga egasiz. Agarda mazkur uy-joyda yashashingiz bo'yicha nizo bo'layotgan bo'lsa va bu nizo bo'yicha mahalla fuqarolar yig'ini ishtirokida kelishuvga erishilmasa, 3 nafar voyaga yetmagan farzandingiz bilan birga ushbu uyga hovli-joydagi barcha asosiy va yordamchi binolardan hamda kommunal xizmatlardan foydalanish huquqi bilan majburiy kiritib qo'yish haqida Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga da'vo ariza kiritish huquqiga egasiz.

**BEPUL DAVOLANISHIM MUMKINMI?**

– Afg'on urushi qatnashchisiman. Sanatoriya bepul dam olib, davolanishim mumkinmi?

– Ha, sizga sanatoriya uchun bepul yo'llanma beriladi. 2022-yil 1-iyuldan navbat asosida, ammo 2 yilda bir marotaba navbat asosida urush qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarga bepul sanatoriya-kurort yo'llanmalari beriladi.

2021-yil 19-noyabrda Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlangan. Shu asosida elektron ariza topshiriladi va navbatga turiladi. Yo'llanmalarni olish uchun faqat Davlat xizmatlari markazi yoki internet sayti – my.gov.uz orqali navbatga qo'yilish imkoniyati mavjud.

**QAYTA ARIZANI QACHON BERAMAN?**

– Farzandim uchun bola puli olaman. 2023-yil sentabr oyi uchun shu o'ning oxirida oxirgi marta bola puli olamiz. Qayta arizani qachondan berishim kerak?

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi qaroriga ko'ra, Bolalar nafaqasini olish uchun ariza oldingi davrda tayinlangan bolalar nafaqasi to'lash muddati tugayotgan oydan keyingi oyda beriladi.



Savollarga "Madad" NNT  
Qo'qon shahar  
huquqiy maslahat byurosi  
bosh mutaxassisi  
**Mukarram**  
**TASHBOLTAYEVA**  
javob berdi

Shunga ko'ra, bolangizga to'lanayotgan bolalar nafaqasi muddati tugasa, keyingi oyning 16 sanasiga qadar yashash hududidagi mahalla fuqarolar yig'ini ariza topshirishingiz kerak.

**SUD QARORINING IJROSI TA'MINLANMADI**

– Men bir tanishimga qarzga 2000 AQSh dollari bergan edim. Pulimni aytilgan vaqtdan o'tib ham qaytarmagani uchun uni sudga berdim. Sudda qarzdor qarzni har oyda 200 AQSh dollaridan bo'lib-bo'lib to'lashiga kelishuv bitimi tuzilgan edi. Bitim sud tomonidan tasdiqlangan. Lekin qarzdor kelishuv bitimi shartlarini ham bajarmay, qarzini to'lamay kelmoqda. Sud qarorining ijrosini ta'minlash uchun qayerga murojaat qilay?

– Fuqarolik protsessual kodeksining 168-moddasiga ko'ra, kelishuv bitimini tuzgan shaxslar uni ushbu bitimda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ixtiyoriy ravishda ijro etishi zarur. Sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi ushbu bitimda nazarda tutilgan muddatlarda ixtiyoriy ravishda ijro etilmagan taqdirda, kelishuv bitimini tuzgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida majburiy ijro etilishi lozim.

Bunga ko'ra, kelishuv bitimini tasdiqlagan Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga kelishuv bitimi bajarilmayotgan sababli majburiy ijro etilishi uchun iltimosnoma kiritishingiz lozim.

Iltimosnomangiz sud tomonidan ko'rib chiqilib, Majburiy ijro byurosiga taqdim etiladigan ijro varaqa beriladi. Shu orqali haqдорligingiz majburiy tartibda ijro qilinishini talab qilishingiz mumkin.

**O'qituvchi, ustoz, maktab so'zlari biz uchun Vatan, Ona so'zlari kabi muqaddas maqomga ega. "Ustoz otangdek ulug'", "O'qituvchi inson ruhi-ning injeneri" degan o'g'itlar qulog'imizgagina emas, qalbimizga ham quyilgan. Ammo Rustam Bisenevning quyidagi hayotiy hikoyasini o'qib, nimagadir ko'nglimni og'riq va g'ashlik egalladi. Sababini mana bu voqealar bilan tanishganingizdan keyin aytaman.**

# YAPONIYADA "O'QITUVCHILAR KUNI" YO'Q...

"Bir kuni yaponiyalik hamkasbim Yamamota muallimdan:

– Yaponiyada qachon o'qituvchilar kuni bayram qilinadi va uni qanday kutib olasizlar, – deya so'radim.

U savolimdan hayratlanib shunday javob berdi:

– Bizda "O'qituvchilar kuni" degan hech qanday bayram yo'q.

Hamkasbimning javobiga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay qoldim. Chunki "Nega endi iqtisodiyoti, ilm-fani, texnikasi shu qadar rivojlangan olamshumul mamlakat o'qituvchining mehnatiga hurmatsizlik bilan qaraydi?!" degan fikr xayolimdan o'tdi.

Bir kuni ishdan keyin Yamamota meni uyiga mehmonga taklif qildi. U maktabdan ancha olisda yashagani uchun biz metroda ketdik. Kechki "chas-pik" vaqti bo'lgani uchun yer osti vagonlari yo'lovchilar bilan liq to'la edi. O'tirishga emas, hatto oyoq qo'yishga ham joy yo'q edi. Men arang joylashib, tepamdagi tutajichdan mahkam ushlab oldim. Shu payt qarshimizdagi o'rindiqda o'tirgan otaxon menga joyini bo'shatib, o'rni-dan turdi. Keksa yoshdagi odamning bu harakatini tushunmasdan, uning taklifini rad etib, minnatdorlik bildirdim. Lekin u qat'iy ohangda talab qilgach, ming istihola bilan o'tirishga majbur bo'ldim.

Metrodan tushganimizdan so'ng Yamamota oqsog'olning bu mu-lozamatini izohlab berdi. U kulib, mening kostyumim yoqasiga qadalgan o'qituvchilik ko'krak nishonimni ko'rsatib:

– Bu kekse otaxon sening o'qituvchi degan ko'krak nishoningni ko'rib, maqomingning hurmati uchun joyini bo'shatib berdi, – deya o'q'shib qo'ydi. Yuragim to'qinlanib ketdi.

Hamkasbimning uyiga birinchi marta mehmonga borayotganim uchun quruq qo'l bilan borish no-

qulay deb, sovg'a olmoqchi bo'ldim. Bu fikrimni Yamamotaga aytdim. U taklifimni qo'llab-quvvatladi va yaqin atrofda o'qituvchilar uchun maxsus do'kon borligini va bu yerda tovarlarni imtiyozli narxda olish mumkinligini bildirdi.

Men hayajon va hayratimni yana yashira olmay undan so'radim:

– Imtiyozlar faqat o'qituvchilargami?

Yamamota so'zimni shunday tasdiqladi:

– Yaponiyada o'qituvchi eng hurmatli kasb egasi. Yaponiyalik tadbirkorlar ularning do'koniga o'qituvchilar kirsam, buni o'zlariga katta sharaflar deb hisoblaydi.

Yaponiyada yurgan vaqtimda yaponiyaliklarning o'qituvchilarga hurmati cheksizligini ko'rdim. Metroda ular uchun alohida joy, alohida savdo do'konlari borligiga guvoh bo'ldim. O'qituvchilarning transportning barcha turlaridan foydalanishiga chipta olish uchun hech qachon navbatda turmasligi albatta bunday yuksak hurmatning davlat darajasida ekanligini isbotlab turibdi.

Shunday ekan, yaponiyalik o'qituvchilarning hayoti va har kuni bayramdek o'tsa, ularga alohida bayramning nima keragi bor?

Bu kichik haqiqatni yoritishdan, ulashishdan maqsadim shuki, bizning jamiyatimizda ham o'qituvchilarga munosabat shu qadar baland bo'lishini, ustozlar maqomi yuksak maqom darajasiga ko'tarilishini chin yurakdan istayman. Ko'kragimizda g'urur urib tursin! O'qituvchi, senga ta'zimdaman. Rustam Bisenev".

Ha, Yaponiyada biz uchun cheksiz havasimizni keltirgan yana bir ulkan haqiqat bor. **Yaponiyada o'qituvchiga vazirning maoshi, imperatorning obro'si, deputatning daxlsizligi berilgan...**



## BIZDA "O'QITUVCHILAR KUNI" BORU...

Bizda ham ustozlarga hurmat-ehtimrom boshqacha. Ularga atalgan alohida kun – bayram – 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni nishonlanadi. Hatto Vatanning eng yuksak mukofoti – O'zbekiston Qahramoni unvonini olgan o'qituvchilar borligi bilan faxrlansak arziydi. Ammo negadir bu bayram keyingi yillarda o'qituvchi degan ulug' nomning soyasida qolib ketgandek. To'g'rirog'i, o'qituvchilarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadri-qimmatini haqidagi balandparvoz so'zlarga hozir ishonish qiyin.

Axir, o'quvchisi maktab hovlisidagi bog'dagi daraxt tagiga bir chelak suv quygani uchun majburiy mehnatga jalb qilingan, deb o'qituvchiga jarima solayotgan qonunlarimiz bilan nafas olayotgan, darsga kalta-kulta kiyinib kelgan erkato'y qizga kiyinish madaniyatini chiroyli eslatgan muallimani ishdan haydashgacha borgan, haqiqatni aytgani uchun maktab direktorini qamatgan, urib-do'pposlagan, o'qituvchilarni bir-biriga gij-gijlab, yumma talatgan, qo'limizdan ushlab harf yozishni o'rgatgan mehribon qo'llarni urib sindirgan elning avlodi emasdik-ku!

Jamiyatimizda maktab va o'qituvchi bilan bog'liq noxush lavhalar oz emas. Bunday fojialar lentasini bir-ikki kunda unutishga o'rganib qolayotganimiz juda achinarli. Aslida barcha illatning ildizi ana shu loqaydligimizda, hayotda uchrayotgan noxush ko'rguliklarga ko'ni-

kishimizda, aytgan so'zimni oqlay olmasligimizda...

To'g'ri, O'zbekistonning o'z ta'lim moduli, o'z yo'li bor. Ammo bu yo'l nega yorug' manzillarga olib bormayapti, degan haqli savol qiyinaydi odamni. Nega bilim, saviya yildan-yilga yuksalish o'rniga pasayishda davom etmoqda. Shu yilgi test natijalari yoshlarda maqsad bilan bilim mushtarak emasligini ko'rsatdi. Hammasi yuzaki, hammasi shunchakidek...

To'g'ri, Xalqaro olimpiadalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan, bir yo'la o'nlab chet el oliy ta'lim dargohlariga o'qishga qabul qilingan, chet tillarini "suv qilib ichib yuborgan" bilimdon va salohiyatli, shavkatli va faxrli yoshlarimiz bor. Ammo ular dengizdan bir tomchi ham emas, juda oz. Bizga esa al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farg'oni, at-Termizi, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi daholar kerak!

Buning uchun o'qituvchini faqat birgina bayram kuni yo'qlab, keyin unutadigan emas, har kuni hurmatini bajo keltiradigan, xizmatini qadrlaydigan, ko'ngliga ozor bermaydigan ma'rifatli, ma'naviyatli, tarbiyali jamiyat kerak. Buning uchun Hazrat Navoiyning quyidagi misralarini yurakdan his etadigan, unga amal qiladigan xalq kerak, insoniyat kerak!

**"Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila!"**

**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri

## 6 HAR BIR UYGA HUQUQIY MASLAHAT BILAN



– Men avtomashinani sotish huquqi bilan notarial idora orqali ishonchnoma olgan edim. Hozirgi kunda notariusga borsam, egasi vafot etgani uchun menga berilgan ishonchnoma bekor bo'lganini aytdi. Shuning uchun notarius notarial harakatni rasmiylashtirishni rad qilmoqda. Notariusning shu harakatlari qonuniymi? Ishonchnoma bergan fuqaroning vafoti bilan u tomonidan berilgan ishonchnoma bekor bo'ladimi?

## Shaxsning vafoti bilan ishonchnoma bekor bo'ladimi?

– O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 141-moddasida ishonchnomaning amal qilishi ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi yoxud uning vafot etishi munosabati bilan bekor bo'lishi belgilangan. Shunga ko'ra, notariusning xatti-harakatlari qonuniydir. Ishonchnoma bergan fuqaroning vafoti bilan u tomonidan berilgan ishonchnoma bekor bo'ladi. Mulk egasining vafotidan so'ng meros ochiladi. Bunday vaziyatda merosxo'rlar notariusga murojaat qilishi kerak.


Savolga Kogon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nodirshox GULAMOV javob berdi



– Xususiy universitet diplomi bilan davlat oliy ta'lim muassasalarining diplomi bir xil kuchga egami?

Feruza TO'RAYEVA,  
Denov tumani

## Davlat va nodavlat oliygohlarning diplomi bir xil kuchga egami?



– Agar xususiy universitet O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan berilgan litsenziya asosida faoliyat yuritisa, uning diplomi davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan beriladigan diplom bilan bir xil maqomga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga ko'ra, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs nodavlat ta'lim tashkiloti ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, ushbu qonunning 57-moddasiga ko'ra, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tegishli tartibda litsenziya olishi va akkreditatsiyadan o'tishi kerakligi belgilangan.

Yuridik jihatdan belgilangan tartibda litsenziya olgan va davlat akkreditatsiyasidan o'tgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining diplomi tan olinadi va boshqa davlat oliy ta'lim muassasalarining diplomi bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

Savolga Denov tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Faxriddin MADAMINOV javob berdi



O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi ekanligi ta'kidlangan.



## Korrupsiyadan qutulish uchun nima qilishimiz kerak?

Shu bilan birga, qonunchilikda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu illatga qarshi kurashishdagi kuch hamda imkoniyatlarini birlashtirish maqsadi nazarda tutilgan. Korrupsiya illatiga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur. Zero, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kuchli immunitet shakllanmas ekan, jamiyat bu balodan qutula olmasligi barchamizga ma'lum.

Shuningdek, qonunchilikda davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratayotgani hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslari va xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rishni majburiy etib belgilangan.

Keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat organlari tomonidan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish hamda bartaraf etish chora-tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko'rilmoqda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mu-

taxassislar tomonidan aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholining qonunlarni yaxshi bilmaligi yoki tushunmasligi, oqibatda mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratib berilishi korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari qonunning 16, 17, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan. Hayot tajribasidan ma'lumki, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatidan yetuk bo'lgan insonlar korrupsiyaga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida to'g'ridan-to'g'ri "korrupsiya" atamasidan foydalanilmagan bo'lsa-da, kodeksning 15-bobi "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" bilan to'dirilgan. Mansab lavozimidan foydalanilgan holda pora beruvchining manfaatini ko'zlab olingan har qanday moddiy qimmatliklar jinoyat predmeti hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan.

Albatta, bir davlat hududida qo'llanilgan chora va qabul qilingan qonunchilik boshqa davlatda ham xuddi ana shunday samara keltirmasligi mumkinligi barchamizga ma'lum. Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun birgina qonun hujjatlarining qabul qilinishi yetarli emas, albatta.


Buning uchun fuqarolik jamiyati ham mazkur ishda faol ishtirok etishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro hamkorlik kuchaytirilishi, sudlarning mustaqil va xolis bo'lishini ta'minlashimiz zarur. Eng muhimi, qonunlar parlament a'zolarining emas, balki mamlakat manfaatidan kelib chiqib qabul qilinishi va fuqarolarning bu jarayonda faol ishtirok etishi, barcha davlat organlarida shaffoflik ta'minlanishi, ommaviy axborot vositalarining faol ishtiroki, ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish uchun xizmatlar imkon boricha elektron tizim orqali ko'rsatilishi kerak. Shu yo'l bilan inson omilini bartaraf etish orqali korrupsiya illatiga sezirarli barham berilishiga erishiladi.

Shu bilan birga, sog'lom raqobat muhiti shakllantirilishi kerak. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan munosabatni munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish uchun barchamiz birdek mas'ul bo'lishimiz kerak.

Xulosa o'rinda aytish joizki, korrupsiya muammosi so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzu hisoblanadi. Ayrim siyosatchilar tomonidan korrupsiyaga global inqirozni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ham ta'rif beriladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratilgan bo'lsak, ularning ayrimlari korrupsiya balosiga qarshi o'z vaqtida muvaffaqiyatli kurashib, ijobiy natijalarni qo'lga kiritishganini ko'ramiz. Bizda ham ana shunday natijalarga erishish mumkinmi? Ha, albatta. Buning uchun barcha ta'lim muassasalarida belgilangan tartibga asosan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" darslarini o'tish yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'lg'in TO'XTASINOV,  
2-darajali adliya maslahatchisi

**Karmana tumanlararo iqtisodiy sudida da'vogar – "Sitrus Biznes Navoiy" xususiy korxonasi va javobgar – "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati o'rtasida yuzaga kelgan iqtisodiy ish ko'rib chiqildi. O'z da'vosida xususiy korxonadan javobgardan 41 million 264 ming so'm to'langan penya, 27 million 464 ming 505 so'm bank foizi va 12 million so'm advokatlik xizmati(zarar)ni undirishni so'ragan.**



## DA'VOGARINING HAM AYBI BOR

Sud majlisida aniqlanishicha, 2021-yil 17-noyabrda "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati shartnomaga asosan avvaldan "Sitrus Biznes Navoiy" xususiy korxonasi bilan 119 million 683 ming so'm va unga hisoblangan 41 million 200 ming so'm penyani undirib olgan. Ammo jamiyatning bu xatti-harakati qonuniy emas edi. Binobarin, xususiy korxonada 2023-yil 9-yanvarda ana shu mablag'larni qaytarish yuzasidan talabnoma kiritgan. Shu bois, "Hududgazta'minot" AJ 2023-yil 28-fevralda faqatgina 105 million 683 ming 600 so'mni qaytargan xolos. Penya mablag'i esa asossiz ravishda qaytarilmagan.

Fuqarolik kodeksining 236-moddasiga ko'ra, majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Kodeksning 260 va 261-moddalarida esa qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanishi, neustoyka to'g'risidagi

kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerakligi qayd etilgan. Ana shu asoslarga muvofiq, sud javobgardan da'vogar foydasiga 41 million 200 ming so'm asossiz undirilgan penya pulini undirishni belgiladi.

Shuningdek, da'vo talabida 27 million 564 ming 505 so'm bank foizini undirish ham mavjud. Gap shundaki, Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga binoan, boshqa shaxslarning pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jam'arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag'lar summasiga foiz to'lanishi kerak. Kodeksning mazkur talabi asosida xususiy korxonaning 105 million 683 ming 600 so'm mablag'i g'ayriqonuniy tarzda ushlab turilgani uchun 20 million 35 ming 848 so'm bank foizi hisoblanishi lozim. Lekin sud da'vogar tomonidan belgilangan foizlar majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibligini, qolaversa, da'vo arizasi sudga o'z vaqtida kiritilmagani, foizning yuzaga kelishi hamda uning miqdori ortib borishida da'vogarning ham aybi mavjudligini, shu bilan birga, kreditorning manfaatlarini e'tiborga olib, da'voning bu talabini qisman qanoatlantirib, 10 million so'm miqdorida foiz undirishga qaror qildi.

Iqtisodiy ish hujjatlaridan ayon bo'lishicha, 2022-yil 24-noyabrda "Sitrus Biznes Navoiy" xususiy korxonasi va "Navoiy huquq ziyosi" advokatlik firmasi o'rtasida 227-sonli yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma tuzilgan. Mazkur shartnomaga asosan xususiy korxonadan ko'rsatiladigan advokatlik xizmati uchun 12 million so'm to'lab bergan. Shu bois, sud da'voning ayni talabini ham to'liq qanoatlantirdi.

Ko'rinib turibdiki, birgina xatolik "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyatiga qimmatga tushdi. Shunday ekan, shartnomaviy munosabatlarida qonun talabidan chetga chiqmaslik shart.

**Bekzod JUMAYEV,**

Navbahor tumanlararo iqtisodiy sudi raisi

**Marg'ilon shahridagi "Soyguzar kichik sanoat zonasini" hududida "Oyna makon" MChJga qarashli, maydoni 158 metr kvadrat bo'lgan "Oynani qayta ishlash va jilov berish sexi" joylashgan. "Oyna makon" MChJ so'nggi yillarda sexda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirib kelgan.**

## QURILISHDAGI MUAMMO SUDDA YECHIM TOPDI

Biroq mazkur obyekt 2021-yil 14-dekabrda buyon nazoratga olgan Farg'ona viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi olib borilayotgan qurilish-montaj ishlari loyiha hujjatlari mos emasligi, bu esa qurilish obyektining zilzilaviy hududlarda chidamlilik va mustahkamlik ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelganini aniqlagan. Shu bois 2022-yil 16-fevralda inspeksiya tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan jamiyatga yozma ko'rsatma yuborilgan. Ammo mavjud kamchiliklar bartaraf etilmay, ko'rsatma ijrosi ta'minlanmagan. Natijada hududiy nazorat inspeksiyasining 2022-yil 30-maydagi 2235002420169-sonli qarori bilan "Oyna Makon" MChJ rahbariga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 99-moddasi birinchi qismi asosida ma'muriy jazo qo'llangan.

Bundan tashqari, 2022-yil 15-noyabr va 30-noyabr kunlari Farg'ona viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan jamiyatga qurilishni to'xtatish to'g'risida 60-sonli hamda 62-sonli yozma ko'rsatmalar berilgan. Biroq "Oyna Makon" MChJ shunda ham aniqlangan kamchiliklarni to'liq bartaraf etmagan. Andijon viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasining 2023-yil 2-martdagi nizoli obyekt bo'yicha bergan ma'lumotiga binoan, oyna tsehidida loyiha tashkiloti bilan kelishmasdan 2 dona ortiqcha temir beton ustun konstruksiyasi o'rnatilgan. Qolaversa, loyiha hujjatida qayd etilgan 400 m.m qalinlik o'rniga amalda 200 m.m qalinlikda devor konstruksiyalari qurilgan. Shuningdek, loyiha hujjatiga zid ravishda tomyopma konstruksiyasiga ikkilamchi temirbeton plitalar montaj qilingan. Ya'ni binoning holati "Zilzilaviy hududlarda qurilish me'yorlari va talablari"ni qanoatlantirmagan. Binobarin, hududiy nazorat inspeksiyasi Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza kiritib, jamiyat zimmasiga qurilish-montaj ishlarini darhol to'xtatib, demontaj qilish majburiyatini yuklashni so'ragan.

Albatta, sud tilga olingan holatlarni atroflicha tekshirib, tahlil qilib chiqdi. Pirovardida, da'voni qanoatlantirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qildi. Shu bilan birga, majburiyatni ixtiyoriy ijro etish uchun "Oyna makon" MChJga hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab, 15 kunlik muddat berildi.

**Azizbek AKBAROV,**

Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudi raisi

**Xorazm viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida hududning Tabiat resurslari boshqarmasi hamda bir sanoat korxonasi o'rtasidagi mojaro vaziyat yuzasidan sud ishi ko'rib chiqildi.**

## HAL QILUV QARORI O'ZGARISHSIZ QOLDIRILDI

"O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizomning 6-bandiga ko'ra, atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarini va oqovalarni normativ va normativdan ortiqcha chiqarganlik va oqizganlik, shuningdek, chiqindilarni belgilangan limit va limitdan ortiqcha joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini mavjud.

Xavflilik darajasi I (yuqori darajada xavfli), II (o'rtacha darajada xavfli) va III (past darajada xavfli) toifalarga

mansub kompensatsiya to'lovchi subyektlar uchun to'lovlar miqdori laboratoriya tahlillari asosida, agar atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarda nazoratning avtomatik tizimi joriy etilgan bo'lsa, bu holatda kompensatsiya to'lovlari ushbu tizimning ma'lumotlari asosida hisoblanishi mumkin.

Ushbu nizom talablaridan kelib chiqib, javobgar hisoblangan xususiy korxonadan III toifaga mansub kompensatsiya to'lovchi subyekti sifatida elektron shakldagi hisobotlarni da'vogar hududiy Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish

boshqarmasiga taqdim qilib borgan. Taqdim qilingan hisobotlar da'vogar tomonidan tekshirilib, asosiy qarzdorlik va penya hisobi yuritilib kelingan. Javobgar jami 3 million 262 ming 86 so'm asosiy qarz, 936 ming 856 so'm penya hisobidagi qarzdorlikni vaqtida to'lamagan.

Ushbu qarzdorliklarni to'lash bo'yicha da'vogarning javobgariga yuborgan ogohlantirish xati esa javobgar tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan. Shundan keyin da'vogar sudga ariza bilan murojaat qilib, javobgardan 3 million 261 ming 686 so'm asosiy qarz, 936 ming 856 so'm penya, jami 4 million 198 ming 542 so'm undirishni so'ragan. Sudning hal qiluv qarori bilan da'vo to'liq qanoatlantirilgan.

Hal qiluv qaroriga nisbatan javobgar tomonidan apellyatsiya shikoyati berilgan. Unda korxonadan atrof-muhitni ifloslantirish, metal mahsulotlari ulgurji savdosi bilan shug'ullanishi qayd etilgan. Shuningdek, apellyatsiya shikoyatida da'vogar bilan shart-

noma tuzilmagani, biron marta ham og'zaki yoki yozma ogohlantirilmagani ko'rsatilib, hal qiluv qarorini bekor qilib, da'voni rad qilish haqida yangi qaror qabul qilish so'ralgan.

Sudlov hay'ati tarafar vakillarining tushuntirishlarini tinglab, apellyatsiya shikoyatida bayon etilgan vajlarni ish hujjatlari bilan birgalikda muhokama qilib, hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishni lozim deb topdi. Sababi, javobgar III toifaga mansub kompensatsiya to'lovchi subyekti hisoblangan-da, belgilangan kompensatsiya to'lovlarini o'z vaqtida to'lab bormagan. Bu esa ish hujjatlari va sudga aniqlangan holatlar bilan o'z tasdig'ini topgan. Ushbu holatlar javobgarning sud majlisida ishtirok etgan vakili tomonidan ham inkor qilinmadi. Shu sababli, sud apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni rad etib, hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishni lozim deb topdi.

**Muzaffar BOBONAZAROV,**

Xorazm viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi

## 8 ADABIY AYVON

– Buning hammasi mengami?  
– Ha-da, – dedi nazoratchi. – So'nggi bor bir xumordan chiqib, to'yib ovqatlaning. Hozir men sizga bodringdan gazak ham keltiraman, barchasini bira-to'lasiga olib kelishni uddalay olmadim.

Patyal uni mamnun bo'lib tingladi. Keyin kursiga bamaylixotir o'rtnashib oldi-da, kinoyaomuz jilmayib, qovurdoqni paqqos tushirishga kirishdi. Ko'rinib turibdiki, u boricha fikrlaydigan beor bir kimsa edi, hatto umrining shu oxirgi soatlarida ham, hayot o'ziga nimaniki ravo ko'rgan bo'lsa, ularning hech birini qo'ldan chiqarishni istamasdi.

Faqat bitta o'y Patyalning ishtahasi-ga ozroq pand berardi: uning shafqat so'rab qilgan o'tinchi bugun tongda rad etildi; hukmning ijrosi atigi yigirma to'rt soatgagina kechiktirildi, xolos. Bu to'g'ridagi xabarni unga yetkazgan kishilar, ya'ni hukmning ijro etilishi oldidan uni baribir o'limga ko'ngildagiday hozirlash uchun jonini jabborga berayotgan mana shu odamlar, uni osishadi va murdasini tomosha qilishadi. O'zlari bo'lsa, ertaga, ertadan keyin va yana ancha-muncha yillar yashayverishadi, oqshomlari, go'yo aytarli biron kori hal ro'y bermaganday, xotirjam, oilalari bag'riga oshiqishadi, lekin Patyal... bu olamda boshqa bo'lmaydi.

Ko'nglida shunday o'ylar kezar ekan, Patyal dilgir bir ahvolda buzoq go'shtidan tayyorlangan qovurdoqni astoydil tanovul qilardi. Bodringdan qilingan gazak hamda bulka non keltirishganida esa, u homuza tortadi va sarxli tamakidan topilsa, bir miriqib trubka tortish istagi yo'q emasligini izhor etdi. Mahbusga eng a'lo navli tamaki xarid qilindi. Nazoratchining o'zi, lutfan unga gugurt chaqib tutdi va gap orasida Patyalga Allohning marhamati cheksiz ekanligini eslatdi. Mabodo, yerdan nasibasi uzilganida ham, aytib bo'lmaydi, balki osmonda...

Mahbus shundan keyin yana bir to'yimli dudlangan cho'chqa go'shti hamda bir shisha may keltirishlarini so'radi.

– Bugun ko'nglingiz tusaganini muhayyo qilamiz, – kuyinchalik bilan dedi nazoratchi. – Siz kabi odamlardan biz hech bir narsani ayamaymiz.

– Agar unday bo'lsa, – dedi bunday litfotdan ko'ngli biroz yorishib Patyal, – menga yana ikki to'yimli, o'pka-jigar aralashmasidan tayyorlangan kolbasa keltirsangiz. Tag'in, bir litr qoramtir pivo bo'lsa, qani edi...

– Hoziroq buyuraman, keltirishadi, – dedi nazoratchi. – Nega endi vaqtigizni chog' qilmas ekanmiz? Hayot degani juda omonat, undan imkon qadar, ulguriganingni olib qulishing kerak.

Nazoratchi buyurtmalarni keltirgach, Patyal undan astoydil mamnun ekanligini ma'lum qildi. Biroq nafsini, qani endi, nafsini jilovlay olsa!..

**Qaysi qilgan aybi uchun osishlari kerak?.. Patyalga endi buning qizig'i yo'q edi. Qatl oldidagi oqshomda, sodir ekan jinoyatlari to'g'risida xayol surib o'tirar ekan, nazoratchi qamoqxona hujrasiga bir shisha may hamda buzoqning binoyiday bir bo'lak go'shtidan tayyorlangan qovurma taomni ko'tarib kirib kelganida, u o'zini kulimsirashdan tiya olmadi.**

Yaroslav GASHEK

# Muruvvat

HIKOYA

– Endi, gap bunday, – dedi u barcha idish-tovoqlarni yalab-tozalab bo'lgach, – shu topda negadir qovurilgan quyon go'shti, pishloq, anavi, gorgonzola deiyshadimi – o'shandan, jiqqa-yog'li sardinka va yana, yengil hazm bo'ladigan ul-bul yeyimliklar topilsa, zo'r bo'lardi...

– Hech ham tortinmang, mahbus, xohlaganingizni topamiz. Ochig'ini aytсам, sizning kiroyi ishtahangizni ko'rib, diim yayrayapti. Umid qilamanki, mening ixtiyorimda ekansiz, tonggacha o'zingizni osib qo'ymissiz? Ko'rinib turibdi, esli-hushli kishisiz. Buning ustiga, janob Patyal, sizni hukumat osishidan oldin o'zingizni osib qo'yishingizdan kim-ga nima naf bor? Rostgo'y bir odam sifatida shuni aytmoqchimanki, siz bunga qobil emassiz, zinhor. Bu to'g'rida o'ylab ham o'tirmang. Qani, yaxshisi, pivoni icking. Qarang, siz bilan ishimiz xamirdan qil sug'urganday silliq bitayapti! Gorgonzoladan oldin pivoni bir sipqorib yuboring – oh-oh, bundan ham lazmatli obi zamzam bo'ladimi, o'zi? Men sizga yana ikki krujkasini keltiraman, sardinka va qovurilgan quyonni esa, aziz do'stim, may bilan tanovul qilasis.

Tez orada keltirilgan xushxo'r taomlarning yoqimli hidi qamoqxona hujrasini gurkirab tutib ketdi. Patyal taomlarni qolida birin-ketin joylashtirar ekan, pishloq va sardinkani ixlos bilan gazak qilib, goh pivoni, gohida mayni, qay biri qo'lga avval ilinsa, o'shani yutoqib simira boshladi. Shu tobda, nogahonda, hali ozodlikda yurganida, shahar chetidagi bir restoranning ochiq ayvonida mana shunday to'yib va miriqib kechki ziyofatda o'tirgan damlari uning yodiga tushdi. Daraxtlarning barglari oy yorug'ida nafis jilvalanib turar, qarshisida esa restoranning baqaloq sohibi – mana shu

jannat burchagining xo'jayini yaslanib o'tirar, to'xtovsiz valaqlar va Patyalga izzat-ikrom ko'rsatar edi...

– Menga biron latifa aytib bersangiz, – so'rab qoldi Patyal xayolini yig'ishtirib olib va nazoratchi unga qatdaydi, Patyalning o'z ta'бири bilan aytdigan bo'lsak, isqirt bir mazmunli latifani boshladi. Ovqatlanib bo'lgach, Patyal hazmi taom uchun o'ziga mevalar va taqsimchada pechenye bilan tim qora qahva keltirishlarini buyurdi.

Uning istagi to'la bajo etildi. Patyal so'nggi buyurtma taomlarni yeb-ichib bo'lgach, nihoyat, mahbusga ko'ngil xotirjamligini ato etish uchun hujraga qamoqxona ruhoniysi tashrif buyurdi.

Ruhoniy xushchaqchaq, odmi muomalali va ayni shu kezda Patyalni o'rab olib, qo'llaridan kelganicha mehribonlik ko'rsatayotgan, uni o'limga hukm etishgan va erta tongdayoq osishga chog'lanishayotgan barcha – boshqalarga o'xshash, ko'rinishi yoqimtoy bir odam edi. Chehrasida o'ktamlik barq urib turardi, o'zaro dilkashlikning havosini olgan bu inson bilan Patyal birpasda kirishib ketdi.

– Yaratgan Egamning o'zi sabr bersin, – dedi qamoqxona ruhoniysi Patyalning yelkasiga qo'l tashlab. – Ertaga, tongda siz uchun barchasi tugaydi, biroq zinhor iztirobga berilmang. Tavba qiling va bu yorug' olamga loqayd nazar tashlang. Parvardigorga topinsangiz, u har bir osiy bandasining tavba-tazarrularini qabul qiladi. Kimki, tavba-tazarrudan bo'yin tovlasa, butun tinni azobda o'tkazadi. Qamoqxona hujrasida o'zini qo'yarga joy topa olmaydi va yig'i-sig'ridan bo'shamaydi. Buning sizga nima keragi bor, a? Behudaga

boshingiz og'rigani qoladi. Va kimki tavba-tazarru qilsa, bu so'nggi kechani baayni taqvodor zotday, tinch uyquda o'tkazadi. Takrorlayman, qarog'im, diiliginizni g'uborlardan forig' etsangiz, yengil tortasiz!..

Biroq Patyalning shu topda birdan rangi oqardi. Uning ko'ngli ayniy boshladi, ichida ichak-chavog'i ag'darilib ketganday tuyuldi, ammo qayt qilmadi. Ta-nasini dahshatli bir tutqaloq iskanjaga ola boshladi, u egrilib-buralar, og'riqdan aftlari burushib ketgan edi, peshonasidan sovuq ter tomchilay boshladi. Ruhoniyni hazilakamiga qo'ruv bosmadi. Nazoratchilar yelib-yugurib qolishdi va Patyalni qamoqxonaning shifoxonasiga jo'natishdi. Qamoqxona hakimlari uning ahvolini ko'rib, bosh chayqashdi. Kechga yaqin bemorning harorati keskin ko'tarildi, tun yarimdan oqqanda esa shifokorlar guruhi uning hayoti tahlila ostida ekanligini ma'lum qilishdi va barchasi yakdil ravishda tashxis qo'yishdi: o'tkir zaharlanish!

Og'ir bemorlarni esa qatl etib bo'lmaydi, shu sababdan o'sha tunda qamoqxona maydonida Patyal uchun dor qurilmadi. Buning o'rninga, oshqozonini hafsala bilan tozalashdi. U qayt qilib tashlangan ovqatning hazm bo'lmagan qoldig'i tahlili ko'rsatdiki, o'pka-jigar aralashmasidan qilingan kolbasa achib-aynigan va zaharga aylangan ekan.

Kolbasa sotilgan do'konni komissiya bosdi, ma'lum bo'lishicha, do'kondor sanitariya qonun-qoidalariga parvo ham qilmagan, kolbasani muzlatkichda emas, balki dim-issiq joyda saqlangan ekan. Komissiya bayonnoma tuzdi hamda ishni prokurorga oshirdi, prokuror esa sotuvchining mahsulotni noqulay sharoitda saqlaganlikda ayblab, javobgarlikka tortdi.

Patyalni davolashgan qamoqxona shifoxonasida yosh, diyonatli, navqiron bir shifokor yigit bor edi, u bemor mahbusning yonidan bir qadam ham jilmadi va uning hayotini saqlab qolishga bor bilim-tajribasini bag'ishladi. Negaki, bu xastalik kamyob, murakkab hamda qiziqarli bir dard edi. Yosh hakim kechani-kecha, kunduzni-kunduz demasdan Patyalga g'amxo'rlik ko'rsatdi va nihoyat oradan ikki hafta o'tgach, uning yelkasiga qoqib, dedi:

– Mana, sizni qutqarib qoldik!

Ertasiga Patyalni, barcha qonun-qoidalariga rioya qilingan holda, osishdi. Negaki, u dorga ossa bo'ladigan darajada sog'aygan edi. Aybi bilan Patyalning umri ikki haftaga uzayishiga sababchi bo'lgan kolbasafurush uch yil muddatga kesildi, Patyalning hayotini dor uchun asrab qolgan yosh shifokor esa boshliqlarning alohida maqtov va ta'riflariga sazovor bo'ldi.

**Rus tilidan Mixil SAFAROV tarjimasida**

**INSON**  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan



**Bosh**  
muharrir

Asliddin  
ALIMARDON

**TAHRIR HAY'ATI**

Alisher Karimov  
Furqat Tojliyev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboyeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

**Navbatchi**  
Gulbahor Orliqxo'jayeva

**Sahifalovchi-dizayner**  
Jasur Tojboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birilashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3500  
Buyurtma – 2891

Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 19:00

**MANZILIMIZ:**

100060, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishgan narxda

1 2 3 4 5